



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-IYUL**

2023-yilning yanvar-iyul oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **4 707,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,4** % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1672

Bino va inshootlar
qurish

444

Fuqarolik obyektlarini
qurish

559

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 93,8 ni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 62,5 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 72,0 % ni tashkil etgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 128,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 20,9 foiz ulushni tashkil etib, 73,2 foizni tashkil etgan.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2022- y.	01.08.2023- y.	
Qashqadaryo viloyati	3430	2675	78,0
shaharlar:			
Qarshi sh.	874	752	86,0
Shahrisabz sh.	148	124	83,8
tumanlar:			
G'uzor	139	82	59,0
Dehqonobod	142	85	59,9
Qamashi	166	111	66,9
Qarshi	398	300	75,4
Koson	318	279	87,7
Kitob	132	109	82,6
Mirishkor	98	81	82,7
Muborak	173	122	70,5
Nishon	123	80	65,0
Kasbi	156	118	75,6
Ko'kdala	38	35	92,1
Chiroqchi	186	125	67,2
Shahrisabz	123	102	82,9
Yakkabog'	216	170	78,7



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (28,1)



Qarshi (11,2)



Koson (10,4)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	4707,5	1154,1	2602,6	950,8
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	1444,5	406,1	921,8	116,6
Shahrisabz sh.	295,2	144,3	122,2	28,7
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	459,8	149,2	228,0	82,6
Dehqonobod	84,8	0,0	27,8	57,0
Qamashi	122,3	0,0	76,8	45,5
Qarshi	346,9	0,0	296,9	50,0
Koson	270,4	21,7	162,5	86,2
Kitob	192,9	0,0	110,2	82,7
Mirishkor	63,2	0,0	41,8	21,4
Muborak	351,8	219,5	89,0	43,3
Nishon	111,3	9,5	66,6	35,2
Kasbi	183,7	0,0	98,7	85,0
Ko'kdala	13,4	0,0	8,6	4,8
Chiroqchi	419,2	187,1	123,0	109,1
Shahrisabz	146,3	0,0	99,1	47,2
Yakkabog'	201,7	16,7	129,5	55,5

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2023- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1154,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 129,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,4 % punktga ko'payib, 24,5 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-iyul oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,2 % i yoki 2022- yilga nisbatan 123,7 %ni tashkil qildi), Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 19,0 % i yoki 2022- yilga nisbatan 3,0 marta ko'paydi) va G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 12,9 % i yoki 2022- yilga nisbatan 2,1 marta ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,3 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 103,2 % ni tashkil etgan holda 2602,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



55,3

2023- yil yanvar-iyul

57,0

2022- yil yanvar-iyul




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (921,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 35,4 %), Qarshi tumani (296,9 mlrd. so'm yoki 11,4 %), G'uzor tumani (228,0 mlrd. so'm yoki 8,8 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,2 %** ni tashkil etdi yoki **950,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **93,5 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **226,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4480,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,8 %** va **95,2 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyul



Davlat mulki

2023- yil yanvar-iyul



Nodavlat mulk

Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylarida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
Qashqadaryo viloyati	4707,5	226,0	4,8	4481,5	95,2
<i>shaharlar:</i>					
Qarshi sh.	1444,5	226,0	15,6	1218,5	84,4
Shahrisabz sh.	295,2			295,2	100
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	459,8			459,8	100
Dehqonobod	84,8			84,8	100
Qamashi	122,3			122,3	100
Qarshi	346,9			346,9	100
Koson	270,4			270,4	100
Kitob	192,9			192,9	100
Mirishkor	63,2			63,2	100
Muborak	351,8			351,8	100
Nishon	111,3			111,3	100
Kasbi	183,7			183,7	100
Ko'kdala	13,4			13,4	100
Chiroqchi	419,2			419,2	100
Shahrisabz	146,3			146,3	100
Yakkabog'	201,7			201,7	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-iyul oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **59,7 %** i yoki **2812,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

21,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **604,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1380,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,1 %** ni tashkil etdi.

49,1 %

29,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **826,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,4 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	4707,5	106,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	1444,5	107,1	30,7
Shahrisabz sh.	295,2	144,8	6,3
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	459,8	121,9	9,8
Dehqonobod	84,8	80,4	1,8
Qamashi	122,3	101,1	2,6
Qarshi	346,9	101,9	7,4
Koson	270,4	101,5	5,7
Kitob	192,9	92,9	4,1
Mirishkor	63,2	91,4	1,3
Muborak	351,8	162,3	7,5
Nishon	111,3	97,7	2,4
Kasbi	183,7	100,9	3,9
Ko'kdala	13,4	100,7	0,3
Chiroqchi	419,2	78,9	8,9
Shahrisabz	146,3	91,9	3,1
Yakkabog'	201,7	118,9	4,3


**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,3 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga kamayib, 65,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamayib, 29,6 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 4,0 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,6 % (4,0 % punktga kamaydi).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-iyul

2023- yil yanvar-iyul

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 5,2 % punktga kamaydi va 68,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 31,4 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 5,2 % punktga ko'paydi.

